

**YOSHLARDA YUQORI ISTE'DODGA EGA BO'LISHDA
TARBIYANING AHAMIYATI**

Raxmonova Sabina Asliddin qizi

*Navoiy Davlat Universiteti San'at va sport fakulteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yunalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda yuqori iste'dodga ega bo'lish jarayonida tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda iste'dod tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shakllanishida irsiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy muhit hamda tarbiya jarayonining o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, iqtidorli yoshlarning psixologik va pedagogik xususiyatlari, iste'dod turlari, ularning namoyon bo'lish shakllari hamda yashirin va potentsial iste'dod muammolari ko'rib chiqilgan. Maqolada tarbiya jarayonini iste'dodni rivojlantirishga yo'naltirish, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi ta'lim muhitini yaratish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari uzluksiz ta'lim tizimida iste'dodli yoshlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: iste'dod, iqtidorli yoshlar, tarbiya, intellektual salohiyat, ijodiy qobiliyat, pedagogik muhit, ijtimoiy-madaniy muhit, motivatsiya, umumiy va maxsus qobiliyatlar, yashirin iste'dod, potentsial iste'dod, uzluksiz ta'lim.

Bugungi kunda pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri yoshlarda yuqori iste'dodni aniqlash, ularning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish hamda iste'dodli shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishdan iboratdir. Bu masala jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etib, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O‘zbekiston Respublikasida iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish zarurligi ta’kidlangan.

Mazkur hujjatda yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan qiziqishini oshirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yuksaltirish uchun iste’dodli yoshlarni aniqlash va tarbiyalash tizimini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi kunda pedagog va psixologlarning fikriga ko‘ra, iste’dod irsiy omillar va ijtimoiy-madaniy muhit (o‘yin, ta’lim, mehnat faoliyati) o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Bu jarayonda tarbiya muhim vosita bo‘lib, shaxsning o‘zini rivojlantirishiga pedagogik asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda iste’dodli yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida yoshlarning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini ochish, tarbiya jarayonida iste’dodni rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.

“Iste’dod” tushunchasi arabcha “qodir bo‘lmoq”, “qila olmoq” ma’nolarini bildiradi va shaxsning ijodiy hamda aqliy faoliyatini ifodalaydi. Psixologik lug‘atlarda iste’dod quyidagicha ta’riflanadi:

1. faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydigan qobiliyatlar uyg‘unligi;
2. shaxsning umumiy imkoniyatlari majmui;
3. aqliy salohiyat va bilish imkoniyatlarining individual tavsifi;
4. tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar;

5. faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyatlar mavjudligi.

Ushbu ta'riflar iste'dodning rivojlanishi tarbiya bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Yoshlarda yuqori iste'dodni shakllantirish va tarbiyaning rolini o'rganish masalalari so'nggi yillarda ko'plab pedagog olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda. Jumladan, pedagoglarni iste'dodli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga tayyorlash masalalari respublika olimlaridan N.Azizxodjaeva, M.Abdullajonova, N.Alimov, R.Djuraev, J.Yo'ldoshev, O'.Tolipov, Sh.Sharipov, N.Erkaboeva, F.Yuzlikaev, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Ortiqov, G.Ibragimova asarlarida keng yoritilgan.

Ularning tadqiqotlarida oliy va umumta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar asosida iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, shaxsning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish muammolari o'rganilgan.

Shuningdek, yoshlarda iste'dodning ijtimoiylashuvi va tarbiya jarayonida namoyon bo'lishi masalalari F.Isaev, R.Safarova, B.Xodjaev, N.Shiyanov, N.Egamberdieva, M.Quronov tomonidan ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur olimlarning ilmiy qarashlarida yoshlarda yuqori iste'dodga ega bo'lish jarayoni nafaqat tug'ma qobiliyatlar bilan, balki tarbiya muhiti, ta'lim jarayoni, ijtimoiy muhit va shaxsning faolligi bilan uzviy bog'liq holda qaraladi. Ularning fikriga ko'ra, tarbiya yoshlarning tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi asosiy omil bo'lib, iste'dodning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda yuqori iste'dod shakllanishida tarbiya quyidagi jihatlar orqali muhim rol o'ynaydi:

- bilishga qiziqishni rivojlantiradi;
- mustaqil fikrlashni shakllantiradi;
- ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi;

ilmiy –amaliy anjuman

- mehnatsevarlik va qat’iyatni tarbiyalaydi;
- kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Iste’dod turlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- amaliy faoliyat (sport, hunarmandchilik, tashkilotchilik);
- nazariy faoliyat (intellektual iste’dod);
- badiiy-estetik faoliyat (musiqqa, rasm, adabiyot);
- kommunikativ faoliyat (yetakchilik, ijtimoiy munosabatlar);
- ma’naviy faoliyat (qadriyatlar yaratish va insonlarga xizmat qilish).

Yashirin iste’dod noto‘g‘ri tarbiya muhiti, kattalar tomonidan e’tiborsizlik yoki noto‘g‘ri baholash natijasida rivojlanmay qolishi mumkin.

Muhokama. Pedagogik jihatdan qaralganda, iste’dod umumiy va maxsus qobiliyatlar asosida shakllanadi. Umumiy qobiliyat – tafakkur, xotira va bilish jarayonlarini rivojlantirsa, maxsus qobiliyat muayyan faoliyat turida namoyon bo‘ladi.

Iste’dodli yoshlar quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

- qiziquvchanlik;
- tez rivojlangan tafakkur;
- kuchli xotira;
- yuqori bilish faolligi;
- ijodiy yondashuv;
- mustaqil fikrlash.

Tarbiya jarayonida yoshlarning qobiliyatlari e’tiborga olinmasa, ularning potentsial imkoniyatlari so‘nib qolishi mumkin. Ayrim hollarda ota-onalar va pedagoglar ijodkorlikdan ko‘ra itoatkorlikni ustun qo‘yadilar. Bu esa iste’dod rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois tarbiya muhiti:

- ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan;
- shaxsiy qiziqishlarga mos;
- ijobiy rag‘batga asoslangan;

– ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lishi zarur.

Xulosa. Yoshlarda yuqori iste’dodga ega bo‘lish irsiy omillar bilan bir qatorda tarbiya jarayoni orqali shakllanadigan murakkab tizimdir. Tarbiya yoshlarning tabiiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bosqichlaridanoq yoshlarning qiziqishlari va imkoniyatlarini aniqlash, tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etish ularning intellektual va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradi.

Shunday qilib, yoshlarda yuqori iste’dodni shakllantirishda tarbiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4306-son qarori Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.05.2019 й., 07/19/4306/3078-сон; 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон)
2. Kozyreva N.A. IQTISODIY BOLALARNI PEDAGOGIK QO‘LLABQUVVATLASH // Zamonaviy tabiatshunoslik yutuqlari. - 2004. - No 5. - B. 55-58
3. Каримова, М., & Тойчиева, Р. (2022). Bolalarni oilada tarbiyalash haqida o‘rta osiyo mutafakkirlarining falsafiy-etik, ijtimoiy-pedagogik qarashlari. Общество и инновации, 3(5), 139-145.
4. Каримова, М., & Шарипова, Д. (2023). bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini takomillashtirishning pedagogik asoslari. Общество и инновации, 4(3), 55-62.
5. Karimova M. O., PEDAGOGICAL BASES OF TRAINING OF FUTURE TEACHERS, “O‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat

taraqqiyotida tutgan o‘rn i” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 yil, 12 may.

6. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8547-8555.

7. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317

8. Методические рекомендации по организации работы специалистов сферы общего образования по выявлению и сопровождению детей, проявивших выдающиеся способности. Авторысоставители: Яковлева Н.И., Иванова Т.С. и др. МОН РФ ГОУ ВПО Московский государственный областной университет. 2017 г.

9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – С.-Пб.: Питер, 2003.- 713 с.

10. Раҳматова Ф.Ғ. Иқтидорли ўқувчилар билан ишлашнинг назарийтехнологик жиҳатлари. Услубий қўлланма. Самарқанд-2019. – .46 б.

11. Психология: Словарь/ Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – М., 1990. – С. 247.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. -264-б.